

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish
markazi

direktorining xay‘at raisi
M. M. Musadjanova



2025 y.

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi

direktori
X. Musadjanova



2025y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

Sud tibbiyot ekspertizasi va patologik anatomiya laboratoriya laboranti

(sikl bo‘yicha ixtisoslashtirish guruhlariga uchun)

O‘QUV DASTURI

(288-kredit)

Toshkent-2025 yil

TUZUVCHILAR:

S.Q. Xudoynazarov

Respublika patologik anatomiya markazi
kichik ilmiy xodim

B.B.Giyasova

Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevt
xodimlari malakasini oshirish va
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

YE.A.Eshbayev

TDTU atologik anatomiya kafedrası
professor t.f.d

Z.Z.Imamova

Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika
xodimlar malakasini oshirish va
ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlari
boyicha direktor o'rinbosari.

O'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 2025..y.

bayonnoma № 6

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama
qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 2025..y.

bayonnoma № 5

1.Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. Modul asosida tuzilgan dasturda o‘quv fanning mazmuni uni o‘zlashtirish shakli va usullari bilan birlashgan. “Sud tibbiyot ekspertizasi va patologik anatomiya laboratoriya laboranti” o‘quv dasturi o‘quv rejasiga muvofiq tuzilgan bo‘lib, 3 yildan 7 yilgacha mehnat stajida uzilish bo‘lgan o‘rta tibbiyot xodimlarini 288 kredit (2 oy) ixtisoslashtirish uchun ishlab chiqilgan.

Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo‘lib: kasbiy rivojlanish modulida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish haqida” 255-sonli buyrug‘i ijrosini bajarish maqsadida “Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish”moduli kiritildi. Kasbiy rivojlantirish modulida ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilib, tibbiy talimning uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

1.1.Maqsad:

Sud tibbiyoti ekspertizasi va patologik anatomiya muassasalarida faoliyat olib borishdagi bilimlarini zamonaviy, innovatsion, dalilarga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma‘lumotlar bilan ularning malakaviy xarakteristikasiga mos holda o‘qitish. Sud tibbiyoti va patologik anatomiya sohalarida zarur bo‘lgan nazariy bilimlar hamda amaliy ko‘nikmalarni berish, laboratoriya tadqiqotlarini to‘g‘ri tashkil qilish va o‘tkazishni o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, sud tibbiyoti

ekspertizasi va patologik anatomiya laboratoriyalarida biologik materiallar bilan ishlash, ularni tayyorlash, saqlash va tekshirish bo'yicha kasbiy malakalarni shakllantirish ko'zda tutiladi. O'qish natijasida o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash.

1.2. Vazifalar:

- Sog'liqni saqlash tizimidagi prezident farmonlari, islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- O'zbekiston respublikasida sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslari, sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'yektlari, tuzilishi, tashkiliy tuzilmalari, O'zbekiston Respublikasining sud tibbiy ekspertizasi rivojlanish tarixini o'rgatish;
- O'zbekiston Respublikasi sud tibbiyoti va sud-tibbiy ekspertizasining hozirgi davrdagi o'rni, oldiga qo'yilgan vazifalari, maqsadlari, ularning tuzilishidagi yangiliklar bilan tanishtirish;
- sud tibbiyoti va patologik anatomiya fanlarining nazariy asoslarini o'rgatish.
- murdalarni patologoanatomik tekshirish jarayonida laboratoriya yordamini tashkil etishni o'rgatish;
- biologik materiallarni (to'qima, qon, suyuqliklar) olish, tayyorlash va laboratoriya tekshiruviga tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- mikroskopik va gistologik preparatlar tayyorlash usullarini o'rgatish;
- sud tibbiyoti ekspertizasida qo'llaniladigan laboratoriya uskunalari va asboblardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish;
- laboratoriyada sanitariya-gigiyena va biologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni shakllantirish;
- sud tibbiyoti eksperti va patologoanatom shifokorlar bilan hamkorlikda ishlash malakasini rivojlantirish.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dasturi malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan "Laboratoriya ishi" mutaxassisligini tugatgan, lekin mehnat stajida 3 yildan 7 yilgacha uzilish bo'lgan hamda "Hamshiralik ishi", "Akusherlik ishi", "Davolash ishi" mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lib, "Sud tibbiyoti ekspertizasi va patologik anatomiya laboratoriya laboranti" lavozimida ishlash istagi bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- o'rta tibbiyot xodimining huquqiy me'yorlarini bilishi;
- sud tibbiy ekspertizasi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- laborator tekshirish turlari va yo'nalishlarini bilishi;

- tibbiy laborator asbob uskunalari bilan ishlash qonun-qoidalarini bilishi
- sud-kimyoviy tekshiruv turlari, gistologik va sitologik asosiy laborator tekshirish usullarini bilishi;
- kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bilim va ko‘nikmalariiga ega bo‘lishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Aholi salomatligini muhofaza qilish va kasalliklarning sabablarini aniqlashda patologik anatomiya tadqiqotlarining ahamiyati katta. Sud-tibbiy ekspertizalar jinoyat va nohush hodisalar sabablarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Tibbiy amaliyotda kasalliklarning morfologik asoslarini o‘rganish muhim hisoblanadi. Laboratoriya tadqiqotlarining aniqligi va ishonchligi malakali laborantlar faoliyatiga bog‘liq. Shu sababli sud tibbiyoti va patologik anatomiya laboratoriyalarida ishlay oladigan yuqori malakali laborant kadrlarni tayyorlash tibbiy ta‘limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Dastur asosiy va eng yangi adabiyotlardan, chet el olimlarining tarjima qilingan adabiyotlaridan, milliy va jahon standartlari asosida tuzilgan.

1.6. Dastur hajmi: 2 oy 288 kredit (kuniga 6 soat, haftada 36 kredit).

1.7. O‘qish shakli:

- kunduzgi
- on/offline, masofaviy /an’anaviy o‘qish ishdan ajralgan/ajralmagan holda.

1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi: Mashg‘ulotlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” 160-son buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidalarini asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg‘ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo‘ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. O‘qish tugagandan so‘ng beriladigan hujjat: o‘quv kursini to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Sud tibbiyoti ekspertizasi va patologik anatomiya laboratoriya laboranti” yo‘nalishi bo‘yicha 288 kredit ixtisoslashtirish o‘tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA‘LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta‘lim (natijalari)dan so‘ng tinglovchi kompetensiyasi:

Umumkasbiy kompetensiyalar

- sud tibbiyoti va patologik anatomiya fanlarining nazariy asoslarini bilish.
- inson organizmining anatomiyasi va fiziologiyasi bo‘yicha asosiy bilimlarga ega bo‘lish.
- laboratoriyada sanitariya-gigiyena va biologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

- sud tibbiyoti eksperti va patologoanatom shifokorlar bilan kasbiy hamkorlikda ishlay olish.
- sud tibbiy ekspertizasi oʻrta tibbiyot xodimining vazifalari va burchlarini, protsessual asoslarini bilishi;
- davlat profilaktika muassalaridagi hujjatlarni yuritish, tirik shaxslar va murdalar bilan ishlash koʻnikmalari shakllanadi;
- sud–kimyoviy tekshiruv turlari va usullardan foydalanib amaliyotlar oʻtkazish qobiliyati shakllanadi;
- murda sud tibbiy ekspertizasini oʻtkazish koʻnikmalari shakllanadi;
- sud tibbiyoti ekspertizasi va patologik anatomiya xizmatida asosiy meyoriy xujjatlarni rasmiylashtirish koʻnikmalari rivojlanadi;
- laboratoriya tekshiruvlariga material olish koʻnikmalari shakllanadi va mukammallashadi;
- kechiktirib boʻlmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam koʻrsatish bilimiga ega boʻlish.

Laboratoriya-amaliy kompetensiyalar

- biologik materiallarni qabul qilish, roʻyxatga olish va saqlash.
- toʻqima va biologik namunalarni gistologik tekshiruv uchun tayyorlash.
- mikroskopik preparatlar tayyorlash va ularni mikroskopda tekshirish.
- laboratoriya jihozlari va asboblaridan toʻgʻri foydalanish.
- sud-tibbiy tekshiruvlarda olingan materiallarni laboratoriya tahliliga tayyorlash.
- qismlangan va skeletlangan murdalarning sud-tibbiy ekspertizasi hususiyatlari bilan tanishadi;
- nogahon oʻlim holatlarida murdaning sud-tibbiy ekspertizasi hususiyatlari bilan tanishadi;
- sud biologiya ekspertizasi tekshirish koʻnikmalari shakllanadi;
- tibbiy kriminalistika va sud-gistologik ekspertiza tekshiruvlarini oʻtkazish koʻnikmalari shakllanadi;
- gistologik preparatlar uchun preparatlar olish, tekshirish
- makro-, va mikro preparatlarni toʻgʻri olish, boʻyash, fiksasiyalash, quritish va saqlash koʻnikmalari shakllanadi.

Texnologik kompetensiyalar

- gistologik preparatlar tayyorlash texnologiyasini bilish.
- biologik materiallarni fiksatsiya qilish, boʻyash va mikroskopik tahlil qilish.
- laboratoriyada ishlatiladigan reaktivlar va materiallar bilan ishlash.
- zamonaviy laboratoriya uskunalari (mikroskop, mikrotom, termostat va boshqalar) bilan ishlash.

Tashkiliy kompetensiyalar

- laboratoriya ishlarini rejalashtirish va tashkil qilish.
- biologik materiallarni saqlash va tashish qoidalariga amal qilish.
- laboratoriya hujjatlarini toʻgʻri yuritish.
- laboratoriyada mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish.

Kommunikativ kompetensiyalar

- tibbiy xodimlar bilan samarali muloqot qilish.
- sud-tibbiy ekspertiza jarayonida axborot almashish va hamkorlik qilish.
- kasbiy bilimlarni muntazam rivojlantirib borish.

3.Dastur mazmuni

3.1.“Sud tibbiyoti ekspertizasi va patologik anatomiya laboratoriya laboranti” 288 kredit ixtisoslashtirish kursi o‘quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		
			Nazariy mashg‘ ulot	Amaliy mashg‘ ulot	Attestatsiya
1.0	Kasbiy rivojlantirish modullari	60	34	26	
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6	-	
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4	
1.3	Modul: Xorijiy til.	6	2	4	
1.4	Modul: Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar.	6	6	-	
1.5	Modul: Infeksion nazorat	12	8	4	
1.6	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.	6	2	4	
1.7	Modul:Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	6	2	4	
1.8	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.	12	6	6	
2.0	Mutaxassislik fani modullari	222	78	144	

2.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasida Sud tibbiy ekspertizasining tashkiliy va protsessual asoslari. Sud tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi me‘yoriy hujjatlar.	6	2	4	
2.2	Modul: Murda sud tibbiy ekspertizasini o‘tkazish qoidalari. Tirik shaxslar sud tibbiy ekspertizasini o‘tkazish qoidalari. Laboratoriya jihozlari va asboblari	42	14	28	
2.3	Modul: Sud biologiya va kimyo ekspertisasi tekshiruvlarini o‘tkazish qoidalari. Laboratoriya sanitariyasi va xavfsizlik qoidalari	36	12	24	
2.4	Modul: Respublikada patologik anatomiya xizmati maqsad va vazifalari Patologik anatomiya asoslari	42	14	28	
2.5	Modul: Umumiy patologik jarayonlar. A‘zo va to‘qimalar o‘zgarishlarining o‘ziga xosligi. Biologik materiallarni qabul qilish va saqlash	36	12	24	
2.6	Modul: Gistologik tadqiqotlar asoslari. Gistologik preparatlarni bo‘yash usullari	30	10	20	
2.7	Modul: Tibbiy kriminalistika, sud gistologik ekspertiza tekshiruvlarini o‘tkazish qoidalari. Biologik xavfsizlik va dezinfeksiya	30	10	20	
3.0	Attestatsiya	6			6
	Jami:	288	112	170	6

**“Sud tibbiyoti ekspertisasi va patologik anatomiya laboratoriya laboranti”
ixtisoslashtirish o‘quv modullarining mazmuni**

1.1.Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Islohotlar markazida “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil ustuvor. Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy

hizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o'rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati. "Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy choratadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo'nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

1.2. Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. "Tibbiyot informatikasi asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;

hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

1.3. Modul. Xorijiy til. Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

1.4. Modul. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi meyoriy hujjatlar. Sog‘liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog‘liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo‘nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to‘liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog‘liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog‘liqni saqlash tizimidagi meyoriy hujjatlar.

1.5. Modul. Infekcion nazorat. Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epidemiologiya sohasida qo‘llaniladigan meyoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va meyorlari bo‘yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig‘ish, saqlash va yo‘q qilish.

Karantin va o‘ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma’lumotlar. Karantin va o‘ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O‘ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma’lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o‘tkazish. SanQvaM bo‘yicha joriy va mukammal tozalash o‘tkazish. Qo‘llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo‘llarni yuvish tartibi.

1.6. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo‘limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta’minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

1.8. Modul. Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Transportirovka qoidalari.

Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam kursatish:

-O'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam;

-Jarohatlarda, suyak sinishlarda va Krash sindromida birinchi yordam;

-Kuyishda birinchi yordam;

-Elektrdan shikastlanishda birinchi yordam;

-O'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam;

-Bo'g' ilishda birinchi yordam;

-Cho'kishda birinchi yordam;

-Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam;

-Hasharotlar chaqishida va xayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

O'tkir yurak qon tomir va nafas yetishmovchiligi, kelib chiqish sabablari. Nafas yullari obstruksiyasi. Yot jism nafas yullariga tushganda Geymlix usulini ko'llash texnikasi. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari.

Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak -o'pka reanimatsiyasi (SAV) va uni bajarish algoritmi. Kritik holatlar (xushdan ketish, kollaps, shok, koma). Turlari, sabablari, klinik belgilari va yordam ko'rsatish.

2.1. Modul: O'zbekiston Respublikasida Sud tibbiy ekspertizasining tashkiliy va protsessual asoslari. Sud tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi meyoriy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining sud tibbiy ekspertizasi rivojlanish tarixi. Sud tibbiyotining biologiya, huquqshunoslik fanlari va tibbiyotning boshqa sohalari bilan bog'liqligi. O'zbekiston Respublikasida sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslari. Sud tibbiyoti va patologik anatomiya fanlarining maqsadi va vazifalari. Ularning tibbiyot va huquq

tizimidagi ahamiyati. Sud-tibbiy ekspertiza muassasalari va patologoanatomik laboratoriyalarning tuzilishi. Laborantning vazifalari va mas'uliyati.. Sud tibbiy ekspertiza turlari, obyektlari, tuzilishi, tashkiliy tuzilmalari. Sud tibbiy ekspertizaning turli xil travmatizm va zaharlanishlarning oldini olishdagi ahamiyati. Huquq, qonun, kodeks haqida tushuncha. Huquq turlari. Jinoiy huquq haqida tushuncha. Sud tibbiy ekspertiza turlari. (birlamchi, qo'shimcha, qayta komission, kompleks).

2.2.Modul: Murda sud tibbiy ekspertizasini o'tkazish qoidalari. Tirik shaxslar sud tibbiy ekspertizasini o'tkazish qoidalari. Laboratoriya jihozlari va asboblari. Inson tanasining anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari.Inson organizmining asosiy organ va tizimlari. Yurak-qon tomir tizimi, nafas olish tizimi, hazm qilish tizimi, asab tizimi. Organizmning normal fiziologik funksiyalari.Murda sud tibbiy ekspertizasini o'tkazish qoidalari. Murdani tekshirish ko'nikmalari. Murda sud tibbiy ekspertisasi tekshirish hulosasini tuzish. Jarohatlarni tavsiflash. Kasalliklarni aniqlash va ularni o'lim bilan bog'liqligini aniqlash. O'lim yuzaga kelgan vaqtini aniqlash. Murdadan maxsus laborator tekshiruv uchun biologik obektlarni olish. Yakuniy sud tibbiy xulosani tuzish. Terminal holatlar, klinik va biologik o'limni aniqlash. Murda sud tibbiy ekspertizasini o'tkazish uchun sabablar, o'limning toifasi, turi va xilini aniqlash. O'lim yuz bergan vaqtini tashxislash. Ilk va kechki murda o'zgarishlari. Murda sud tibbiy tekshiruvining qoidalari va uning patologoanatomik tekshiruvdan farqini aniqlash. Eksgumatsiya qilingan murdalarni tekshirish. Chaqaloqlar murdasining sud tibbiy ekspertisasi. Ekspertiza texnikasining o'ziga xos xususiyatlari. Ekspertizada hal qilinadigan savollar. Tirik tug'ilganlik sinamalari. Laboratoriya tekshiruvlariga material olish. Qismlangan va skeletlangan murdalarning sud tibbiy ekspertisasi. Noma'lum shaxslar murdalari ekspertizasining hususiyatlari (antropometriya, so'z portreti, alohida belgilari, daktioskopiya, foto taqqoslash va boshqalar). Kriminal abortdan o'lim holatlarida sud tibbiy ekspertisasi. Nogahon o'lim holatlarida murdaning sud-tibbiy ekspertisasi. Bolalarning nogahon o'limi. Hayvonlar, hashoratlar va o'simliklar tomonidan murdalarning shikastlanishi. Murdani qasddan parchalanganligini aniqlash.

2.3 Modul: Sud biologiya va kimyo ekspertisasi tekshiruvlarini o'tkazish qoidalari. Laboratoriya sanitariyasi va xavfsizlik qoidalari

Sud tibbiyotining asosiy vazifalari. Sud-tibbiy ekspertiza turlari. O'lim sabablarini aniqlash usullari. Sud-tibbiy ekspertizaning huquqiy asoslari.Sud biologiya va kimyo ekspertisasi va tekshiruvlarini o'tkazish qoidalari. Sud biologiya ekspertisasi tekshirish ko'nikmalari. Sud kimyo ekspertisasi va tekshiruvlarini o'tkazish xulosasini tuzish. Tibbiy kriminalistika ekspertiza va tekshiruvlarini o'tkazish qoidalari. Sud gistologik ekspertiza tekshiruvlarini o'tkazish qoidalari va ularni o'lim bilan bog'liqligini aniqlash. Yakuniy sud tibbiy xulosani tuzish. Sud biologiya ekspertisasi bo'limi va xonalari. Bo'limlardagi ishlash tartibi. Gistologiya bo'limi (xonasi) laboranti, uning ish joyi va ish bilan ta'minlanishi. Sud gistologik preparatlarga nisbatan qo'yilgan talablar. Gistologik

tekshiruvlar uchun preparatlar olish, tekshirish. Preparatni (qorindan, ichakdan, me'dadan, siydik pufagidan, ilikdan) olish qoidasi. Gistologik tekshiriladigan vositalarni fiksatsiya qilish. Elektron mikroskop uchun to'qimalarni yarim yupqa kesma olish. Muzlatuvchi, parafinli va selloidinli mikrotomlar, ularning tuzilishi, mustaqil ravishda preparat olish. Mikrotom pichoqlari, ularning turlari. Pichoqlarni charxlash. Kesish qoidalari. Kesish davrida yo'l qo'yiladigan xatoliklar. Gistotopografik kesishlar. Bo'yash uchun kesish usulini tanlash. Raqamlab belgilash ishlarini amalga oshirish. Laboratoriyada sanitariya-gigiyena talablari. Biologik materiallar bilan ishlashda xavfsizlik choralari. Dezinfeksiya va sterilizatsiya usullari.

2.4.Modul: Respublikada patologik anatomiya xizmati maqsad va vazifalari
Patologik anatomiya asoslari Respublikada patologik anatomiya xizmati maqsad va vazifalari. Patologik anatomiya xizmatini Sog'liqni saqlash tizimida tutgan o'rni. Respublika patologik anatomiya xizmatining aholiga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini yanada yaxshilash, davolash muassasalarida kasalliklarning oldini olish, aniq diagnostika qo'yish va davolashni nazorat qilishga qaratilgan chora-tadbirlari. Patologik anatomiya tushunchasi. Kasalliklarda organ va to'qimalarda yuz beradigan morfologik o'zgarishlar. Yallig'lanish, distrofiya, nekroz va o'smalar haqida tushuncha. Autopsiya va biopsiya tekshiruvlari o'tkazish. Bemorlarning hayotligida aniq diagnostika maqsadida biopsiya usulini qo'llash. Autopsiya usulini qo'llashning ahamiyati. Tibbiy xatoliklarini kamaytirishda tibbiy muassasalardagi davolash diagnostika xizmati ustidan nazorat olib borishning ahamiyati. O'tkir yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash. Klinik-morfologik tahlil qilishda hamshiraning vazifalari. Davlat statistikasida o'lim sabablari haqidagi ma'lumotlarni aniqligini ta'minlash. Inson patologiyasi muammolarini ilmiy asoslari.

2.5.Modul: Umumiy patologik jarayonlar. A'zo va to'qimalar o'zgarishlarining o'ziga xosligi. Biologik materiallarni qabul qilish va saqlash.

Umumiy patologik jarayonlar. Patologik anatomiyani davolash muassasalarida kasalliklarning oldini olish va o'z vaqtida aniq tashxis qo'yish. Kasalliklarning oldini olishda gistologik tekshiruvlarning roli. To'qimalar va organlar parenximasining o'ziga xos o'zgarishlarining patologik jarayonini aniqlash. To'qima va organlar qayta tiklanishi buzilishining tekshiruvlari. To'xtovsiz va chegarasiz o'sib ko'payishini oldini olish. Alteratsiya va distrofiya. To'qima va organlarning parenxima hamda stroma-tomir tuzilmalarida rivojlanadigan birlamchi shikastlanish jarayonlari. Destruksiya, nekroz, yallig'lanish, immunopatologiya va disregeneratsiya jarayonlari. Dissirkulyatsiya, yallig'lanish, immunopatologiya, disregeneratsiya, o'sma. Eritmalar tayyorlash texnikasi. Biopsiya materialini tekshirishda bo'yashni ahamiyati. Biopsiya va operatsiya materialini tekshirishlarni qayd qilish daftari. Klinik-patologoanatomik tashxislarni bir-biriga solishtirib ko'rish varaqasi. Murdadan olingan har xil makrotomlarni tekshirish. Makro-, va mikro preparatlarni to'g'ri olish. Eritmalarni tayyorlash. Makro-, va mikro preparatlarni bo'yash,

fiksasiyalash, quritish va saqlash. Patologoanatomik va sud-tibbiy laboratoriyalarda ishlatiladigan asboblari: mikroskop, mikrotom, termostat, laboratoriya idishlari. Ularning ishlash prinsipi va qo'llanilishi. Laboratoriyaga kelib tushgan biologik materiallarni qabul qilish, ro'yxatga olish va saqlash qoidalari. Materiallarni tashish va saqlash sharoitlari.

2.6. Modul: Gistologik tadqiqotlar asoslari. Gistologik preparatlarni bo'yash usullari. Gistologiya fanining ahamiyati. Gistologik tadqiqotlar bosqichlari. To'qimalarni mikroskopik tekshirish usullari. Biologik to'qimalarni fiksasiya qilish maqsadi. Fiksatorlar turlari. To'qimalarni degidratasiya qilish va parafin bloklar tayyorlash. Gistologik va gistokimyoviy bo'yashning asosiy usullari. To'qima va hujayralardagi organik va noorganik moddalarni aniqlashda qo'llaniladigan reaktivlarning reaksiyaga kirishish xususiyatlari. Surtmani qotirish va bo'yashning yangi zamonaviy usullari. Sitologiya va embriologiya fanlari haqida malumot, ularning o'rganish obektlari. Umumiy gistologiya haqida ta'limot. Eng ko'p qo'llaniladigan mikrotomlar xaqida tushuncha. Muzlatuvchi, parafinli va selloidinli mikrotomlar. Mikrotom apparatining tuzilishi va ishlash prinsipi. Parafin bloklardan yupqa kesmalar tayyorlash. Kesmalarni predmet oynasiga o'tkazish. Mikrotom pichoqlarini turlari, ularni uzunligi, shakli va burchagi bo'yicha ajratilishi. Gistologik tekshirish uchun to'qima va a'zoldan material olish usullari. Patologoanatomik amaliyotida keng qo'llaniladigan qotiruvchi eritmalar tayyorlash. Formalinning suvli eritmasining optimal tarkibi. Gistologik va gistokimyoviy usullar qo'llashning zamonaviy usullari. Gistologik bo'yash usullari: gematoksilin-eozin bo'yog'i, maxsus bo'yoqlar. Bo'yash jarayoni va uning ahamiyati. Mikroskopning tuzilishi va ishlash prinsipi. Mikroskopda preparatlarni tekshirish. Mikroskopiya texnikasi.

2.7. Modul: Tibbiy kriminalistika, sud gistologik ekspertiza tekshiruvlarini o'tkazish qoidalari. Biologik xavfsizlik va dezinfeksiya.

Tibbiy kriminalistika ekspertiza va tekshiruvlarini o'tkazish laboratoriya laborantining funksional majburiyatlari. Sud gistologik ekspertiza tekshiruvlarini o'tkazish qoidalari. Ekspertiza tekshiruvlarini o'lim bilan bog'liqligini aniqlash va yakuniy sud tibbiy hulosasini tuzish. Tirik shaxslar tekshiruvida kiyim-kechaklaridagi jarohatlari ta'rifi, dog'lar (muhim ahamiyatga ega bo'lgan) xususiyati, shaxsini tekshirganda olingan obektiv ma'lumotlar, qo'shimcha laboratoriya tekshiruv uchun olingan obektlar, mutaxassislar ko'rigi, rentgenologik va boshqa laborator tekshiruv natijalari. Fotosuratlar yoki jarohatlar belgilangan kontur sxema ilova qilishning ahamiyati. Tekshiruv qismi ekspertiza bajargan shaxs va ishtirok qilgan barcha shaxslar tomonidan imzolanishi. Ashyoviy dalillarni tibbiy-kriminalistik tekshiruv usullari. Tibbiy kriminalistik ekspertizalarni o'tkazish qoidalari. Tergov ishida va jinoyatlarni fosh etishda tibbiy-kriminalistik tekshiruvlarni aniqlash. Ekspertiza jarayonida ishlatiladigan xujjatlar. Ashyoviy dalillarni qabul qilish va saqlash. Ilmiy fotografiya va sud tibbiyoti asoslari bilan fotografik tekshiruv usullari. O'lchov tekshiruv usullari. Mikroskopik tekshiruv usullari. Ultrabinafsha va infraqizil nurlar bilan tekshiruv usullari. Spektral tekshiruv usullari. Tana va kiyimdagi

metallarni topish usullari. Murdadagi pichoqdan yetkazilgan jarohatning birlamchi shaklini tiklash usuli. Rentgenologik tekshiruv usullari. O‘q-otar qurollardan hosil bo‘lgan jarohlarni tekshirish. O‘tkir va o‘tmas jismlardan yetkazilgan jarohlarni tekshirish. Sud tibbiy idiyentifikatsiya usullari. Laborantning funksional majburiyatlari. Laboratoriya hujjatlarini yuritish Laboratoriya jurnallari. Biologik materiallarni hisobga olish. Tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish. Kimyogar ekspertning ashyoviy dalillarni tekshirishdagi o‘rni. Sud kimyoviy tekshiruv obektlari haqida tushuncha. Jinoyatlarni tergov qilish va ularni fosh etishda sud-kimyo ekspertizasining ahamiyati. Biologik xavfli materiallar bilan ishlash qoidalari. Infeksiyalarni oldini olish choralari. Dezinfeksiya va sterilizasiya usullari.

DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O‘quv bazalari:

Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko‘chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

4.2. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar ro‘yxati:

Modul bo‘yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o‘tiladigan o‘quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to‘plami bo‘lgan rrt ko‘rinishli ma‘ruzalar, SD diskda ko‘rgazma materiallar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash trening-o‘quv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriy ko‘rgazma va qo‘llanmalar. Mulyajlar. Videofilmlar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

4.3.1. Qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy xujjatlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining buyruq va me‘yoriy hujjatlari.

4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1.J.J.Jalolov: «Sud tibbiyoti». Toshkent. 2019 y.

2.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining amaldagi me‘yoriy hujjatlari.

3.V.N. Kryukova: «Sudebnaya meditsina» pod redaktsiyey Moskva «Meditsina», 2000 g.

4.V.L.Popov, V.S.Babaxanyan, G.I.Zaslavskiy: «Kurs leksiy po sudebnoy meditsine». S-P., «Dean», 2017g.

5.SH.I.Ro‘ziyev, M.A.Iskandarov: Tibbiyot xodimlarining kasb hukukbuzarliklari holatlarida yuridik javobgarlik. 2017 y.

6. Y.Shamsiyev: Sud tibbiyoti tanatologiyasi. 2016y.

4.3.3. Elektron ta'lim resurslari:

1. O'zROliy va o'rtamaksus ta'lim vazirligi – www.edu.uz
2. O'zRSog'liqni saqlash vazirligi - www.minzdrav.uz
3. Medpoisk <http://www.medpoisk.ru/>
4. Russkiy meditsinskiy server <http://www.rusmedserv.com/>
5. Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>
6. www.adti.uz
7. <http://www.medlinks.ru>

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga quyiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» asosida o'tkaziladi.